



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



Ingliz va o'zbek tillari mediamatnlarida frazeologizmlarning lingvopragmatik tahlili

Usmonova Umida Baxtiyorovna,

Jizzax DPU Filologiya fakulteti Ingliz tili kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(PhD).

Annotatsiya: Mazkur maqolada mediamatnlarda qo'llanilidigan til birliklarning uslubiy-pragmatik xususiyatlari haqida so'z boradi. Bu birliklar mediamatnda xususan gazeta jurnal matnlarida ekspressivligini taminlash va ommaga tushunarli yetib borilishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan jurnalist va ijodkorlar biror mavzuni yoritishda ma'lum bir uslubiy maqsadni ko'zlagan holda ibora tanlaydi hamda matnda qo'llaydi.

Kalit so'zlar: mediamatn, publististik matn, uslub, semantik xususiyat, stilistika, munosabat, ibora.

Publitsistik matnlarga turg'un iboralar, iqtibos, maqol va matallar o'zartirilishiga imkon beruvchi so'z o'yini, hazillar, kalamburlar, turli trop va figuralarning kiritilishi gazeta tilida ekspressiyani oshirishning yana bir vositalaridan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy matbuot tilining nafaqat sintagmatik, balki so'z yasash miqyosida ham innovatsionlilik, innovatsiyaga qaratilganligi uning oshkoraviy farqlovchi xususiyati hisoblanadi.

Xalqlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar tufayli bir til qurilishiga xos elementlar (asosan lug'aviy birliklar, qisman grammatik va fonetik birliklar) ikkinchi bir tilga o'tib, o'sha tilning mulkiga aylanadi. Ana shu nuqtai nazardai o'zbek lug'at tarkibini ikki qatlamga ajratish mumkin:

a) o'z qatlam, b) o'zlashgan qatlam.

"O'z qatlam" deyilganda asli shu tilniki bo'lgan so'zlar, iboralar va shular asosidagi yasalişlar, shuningdek o'z affiks bilan boshqa til leksemalaridan hosil qilinadigan yasalişlar tushuniladi. O'z va o'zlashma qatlam tushunchasi leksema o'zlashtirishga ham, frazeologizm o'zlashtirishga ham bevosita alokadordir. Tilshunos olim Shavkat Raxmatullaev o'zbek tilshunosligida o'zlashma frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri sanaladi. Olimning 1957 yilda ilmiy to'plamlardan birida nashr etilgan maqolasi "Hozirgi zamon o'zbek tilidagi o'zlashtirma frazeologik birliklar haqida" deb nomlangan edi. Bu maqolada o'zbek tilidagi frazeologik birliklarni o'z iboralar va o'zlashgan iboralar deb ikkiga ajratib taxlil qiladi. Maqolada o'zlashgan iboralar deyilganda "boshqa tillardan o'zbek tiliga olingan frazeologik birliklar" tushuniladi. Ana shunday iboralarni shoir va yozuvchilar publitsistik asarlarida ham mahorat bilan qo'llagan hamda o'z nutqlarida qo'llagan. Masalan: suvdan quruq chiqmoq; dilini siyoh qilmoq, ancha suvlar oqib ketdi kabi. Erkin Vohidov rus tilidan o'zlashgan iboralardan foydalangan: знать (узнать) как свои пять пальцев – besh qo'lday bilmoq. Hamma xayollaringiz, hamma niyatlaringiz menga besh qo'lday ayon. (E.Vohidov). Arab tilidan o'zlashgan iboralardan foydalanilgan: Arabcha "mot" o'lim, o'lish, o'ldirish, yengilish ma'nolariga ega. Shunda sen uni farzinga o'xshatgan eding. Mana



o'sha farzin, piyodadan chiqqan farzin o'zingni mot qilib turibdi. (E.Vohidov). Bundan tashqari adib fors-tojik tilidan o'zlashgan iboralardan ham ko'pgina o'rinlarda foydalangan: du dahan – ikki og'iz so'z. Masalan: U kishining doim vaqti ziq. Bir narsa so'ragani kelsak ham ikki og'iz so'z bilan javob berib, haydagandek qilib jo'nata dilar. Dast mondan – qo'l qo'ymoq. Bo'lmasa oldin mana bu qog'ozga – keldi, tuzatdi, deb qo'l qo'yib bering. Go'sh andoxtan – quloq solmoq. Mana bu sayrashga quloq sol! Quloqlaring orom olayaptimi?

Fransuz frazeologiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan tilshunos A.G. Nazaryanning ta'kidlashicha, –Frazeologizm mustaqil til birligi bo'lib, u tarkibiy qism, so'z birikmasi va gapga nisbatan to'liq va qisman semantik o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Tilning mustaqil birligi frazeologizm fonema, morfema, so'z kabi boshqa til birikmalariga nisbatan murakkabroq bo'lib, leksik, grammatik va ayniqsa, semantik jihatdan o'ziga xos tuzilishga egadir. Ular esa frazeologizmlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynab, milliy xarakterni namoyon etadi.

Mustaqillik yillarida gazeta materiallaridan foydalanib, o'zbek tili leksikasi taraqqiyotining turli masalalari tahlil etilgan ilmiy tadqiqotlar yaratildi. O'zlashgan so'z va terminlarning xususiyatlarni o'rganish tilshunoslikda doim dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Istiqlol yillarida o'zlashgan so'z va iboralarni turli xususiyatlarini o'rganishga etibor ancha oshdi. Chunki qisqa tarixiy taraqqiyot natijasida tillarning bir-biriga ta'siri, so'z va terminlarni o'zlashtirish jarayoni ancha tezlashdi. N.Qodirovning “Семантико-стилистический анализ в узбекском и русском языках в новейший период 1991-2001 гг, (на материале газет и устной речи)” nomli nomzodlik ishida ko'plab gazeta materiallari asosida o'zlashgan so'zlar o'rganilib, ular quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1. Moliya-iqtisodiyotga oid leksika: audit, barter v.b.
2. Biznes, ishlab chiqarish va savdoni tashkil etish bilan bog'liq leksika: marketing, sponsor, market kabilar.
3. Ijtimoiy-siyosiy leksika: konsensus, sammit kabilar.
4. Tanlov, teleko'rsatuv, reklama va tomosha oid leksika: triller, karaoke, klipmeyker va boshqalar.
5. Sportga oid leksika: bodibilding, sheyping, bolid va boshqalar.
6. Ta'lim, fan va kompyuterlashtirishga oid leksika: grand, klon, bakalavr, magistr, xaker, modem kabilar.
7. Maishiy leksika: skoch, pissa, popcorn va boshqalar.

Ushbu tadqiqotda 1991-2001-yillar gazeta tilida o'zlashma so'zlarning taraqqiyoti va xususiyatlari chuqur tahlil qilingan va o'rganilgan.

O'zbek tilshunos olimlari A.Mamatov va B.Boltayevalarning –Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi nomli monografiyasi frazeologik birliklarning lingvomadaniy, semantik-pragmatik tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda shaxs emotsiyasi va shaxsga xos fazilatlar va



xarakterlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning kognitiv hamda lingvomadaniy, milliy-madaniy xususiyatlari haqida soʻz yuritiladi. Ushbu monografiyada hozirgi oʻzbek adabiy tilining frazeologik tarkibi tarixiy etimologik jihatdan uch yoʻl bilan shakllanishi koʻrsatilib oʻtilgan:

1) oʻzbek voqeligi asosida shakllangan; off the beaten path (ili track) – har bir ishning bir hikmati bor; Hammasi yaxshilikka;

2) qarindosh va noqarindosh tillardan oʻzlashtirish; he had accepted Haydock as the genuine article – Xaydok mehrli insonga oʻxshaydi; Wars bring scars – Urush – xunrezlik;

3) kalkalash yoʻli bilan kirib kelgan frazeologizmlar farqlanishi taʼkidlangan

Oʻzlashma iboralarining maʼno tuzilishi soʻznikiga nisbatan ancha murakkabroq oʻzlashma iboralarining maʼno munosabatlari bilan uning qismlari oʻrtasida nomuvofiqlik mavjud. Masalan “bosh”, “boʻyin”, “bagʻir”, “dil”, “yelka”, “jigar” singari kishi aʼzolari nomlari ishtirok etgan oʻzlashma iboralarining asosiy qismi shaxsning turli hil tafsifini ifodalaydi. Bunday hollarda iboralar turli xil uslubiy maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Misli ishq dashtida Majnun

Men sagʻir kuygan bagʻir,

Men dunyoga podsho boʻlganimda yomonlarning yoniga qoʻshib koʻngli boʻshlarni jazolar edim.

Adolat qoʻlida boʻlmasa shamshir

Pok dillar qismati xoʻrlilik va tahqir. (E.Vohidov.)

Shuni inobatga olish lozimki oʻzlashma iboralar Erkin Vohidovning asarlarida personajlar nutqini, ularning soʻzlash ohangidagi yumoristik ohangni takidlash uchun vosita vazifasini bajargan. Asarda yuqorida keltirilgan iboralardan tashqari yana bir qancha oʻzlashma iboralar ishtirok etgan. Masalan: Odiljon – Bu misli koʻrilmagan ish-ku...; yana ...Bir payt qaragam itining ahvolini koʻrgan haligi olifta juftakni rostlamoqchi. “Hov, nomard, qayoqqa?”

Ingliz tilida olingan ushbu misollarda ham frazeologizmlardan qay maʼnoda qoʻllanilganini koʻrishimiz mumkin;

“America and Britain signed an accord to “build a common approach” on ensuring the safety of artificial intelligence, the first agreement of its kind in the world. (The Economist 6.04.24).

“Young people should be less pampered and willing to “eat bitterness” (The Economist 6.04.24)

“The event has dominated headlines, both in India and globally. For month. Estimates put the cost of the five month spectacle as upwards of \$600 m –**an eye-watering sum.**”(The Guardian weekly 07.24)



Ushbu misollardan ko`rinib turibdiki, frazeologizmlardan emotsional bo`yoqdorlik bilan o`z tasir kuchini yanada oshirishga olib kelayotganligini guvohi bo`lamiz.

Shunday qilib tilimizning boyligi bo`lgan frazeologizmlarning ham uslubiy imkoniyatlari keng bo`lib, ular mohir san`atkor qo`lida har gal yangi emotsional bo`yoqqa ega bo`lib, o`z ta`sir kuchini yanada orttiradi. Har bir frazeologik iboradan stilistik maqsadlarda foydalanish uchun mualliflar ularning ma`nolarini yangilashga, stilistik imkoniyatlarni kengaytirishga intiladilar. Shu bilan birga tilimizdagi iboralardan unumli foydalanibgina qolmasdan, shular asosida yangi iboralar yaratadilar. Bunda ular iboraning so`z tarkibini o`zgartirib, ularning ma`no va stilistik vazifalarini oshirish uchun turli stilistik figuralardan foydalanadilar, ya`ni asosiy tuzilishni til qonun-qoidalari asosida o`zgartirib, ikkinchi tur tuzilish hosil qiladilar. Bu shabhasiz, tilimizni jozibador, ma`noli va ravon bo`lishini ta`minlaydi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Arnold. I. Семантика, стилистика, интертекстуальность. СПб, СПбГУ, 1999. –444 с.
2. Abdusaidov. A. Язык газеты и литературная норма (на материале местных и республиканских газет 70-80 годов). Автореф. дис. ...канд. филол.наук. – Т.: 1988. – 23 с.
3. Kurbanov. T. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Tashkent, 1987. 130– б.
4. [https:// www.researchgate.net](https://www.researchgate.net).